XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-aprel VII-6-57-8-114-K/25 Qumqo‘rg‘on tumani

Tumandagi “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Yangi O‘zbekiston” nomiga o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son “Shahar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 01-07/02-sonli bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 31-yanvardagi 01-33/21-sonli “Tumandagi “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 10-fevraldagi 18-07/21-sonli bayoni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 3-mart 03/08-2124-sonli xati va 2025-yil 21-fevraldagi 05-19-2710-sonli eksport xulosasi olinganligi belgilab qo‘yilsin.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 moddasiga asosan xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi qaror qiladi:

1. 2025-yil 31-yanvardagi 01-33/21-sonli “Tumandagi “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 10-fevraldagi 18-07/21-sonli bayoni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 3-mart 03/08-2124-sonli xati va 2025-yil 21-fevraldagi 05-19-2710-sonli Davlat ekspertizasi xulosasi haqida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2.Tumandagi “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘ini nomi “Yangi O‘zbekiston” deb o‘zgartirilsin.

3. Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “Qumqo‘rg‘on tumanidagi mahallalar chegaralarini o‘zgartirish va belgilash to‘g‘risida”gi VI-57-180-8-114-K/22-sonli qarori ilovasidagi “Pastxam” mahalla fuqarolar yig‘ini nomi (Yangi O‘zbekiston) deb o‘qilsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari (N.Allanazarov), tuman Adliya bo‘limi (R.Sultanov) “Yangi O‘zbekiston” deb nomi o‘zgartirilgan “Pasxam” mahalla fuqarolar yig‘inini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish hamda muhr va tamg‘alarini almashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari boʻyicha tuman komissiyasi kotibi (Sh.Bobonazarov) oʻn kun muddatda ushbu mahallaning nomini oʻzgartirish toʻgʻrisidagi tegishli hujjatlarni Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi huzuridagi Kadastr agentligiga davlat reyestriga kiritish uchun yuborishini taʼminlasin.

6. Tuman Ichki ishlar boʻlimi (M.Amonturayev) bir oy muddatda tumandagi “Pasxam” mahalla fuqarolar yigʻini nomi “Yangi Oʻzbekiston” deb oʻzgarishi munosabati bilan ushbu mahallada doimiy roʻyxatda turgan fuqarolarining fuqarolik pasportlaridagi doimiy yashash manzillariga tegishli oʻzgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror “Qumqoʻrgʻon sadosi” gazetasida rasman eʼlon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Davlat kadastrlar palatasi tuman boʻlimi (A.Tojiyev) “Pasxam” mahalla fuqarolar yigʻini nomi “Yangi Oʻzbekiston” deb oʻzgarishi munosabati bilan tumanning xaritalariga oʻzgartrish kiritsin, Shuningdek kadastr hujjatlarini rasmiylashtrishda yangi mahalla nomidan foydalansin.

9.Tuman hokimligi devonxona mudiri (B.Raxmonov) maskur qaror nusxalarini tegishli tartibda tuman Tibbiyot birlashmasi (U.Musayev), tuman Statistika boʻlimi (Sh.Allayarov), tuman Mahalla uyushmasi (B.Djumayev) va tuman Favqulotda vaziyatlar boʻlimi (F.Badalov) larga belgilangat tartibda qaror nusxalarini joʻnatsin.

10.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi NORMAMATOV ANVAR MAMATOVICH

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 4-apreldagi
VII-6-57-8-114-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashining
2025-yil 4-apreldagi _____-sonli qaroriga ilova

Pasxam mahalla nomini o‘zgartrish bo‘yicha jadval

T/R	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Taklif qilingan nom**	**Tasdiqlangan nom**
1	mahalla	Ketmon QFY	1.Yangi O‘zbekiston 2.Shodlik	**Yangi O‘zbekiston**